



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni, 1-uy.

2024-yil 29-oktabr

301-7-0-Q/24

Samarqand viloyati hokimligi

Viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagи “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-124-son Farmoni, 2018-yil 4-iyuldagи “Davlat organlari huzurida Jamoatchilik Kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-3837-son qaroriga muvofiq viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagи “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-124-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoni bilan har yili Jamoatchilik Kengashlarining faoliyati samaradorligi baholanishi va uning natijalari e'lon qilinishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

Viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi (keyingi o'rinnarda - Jamoatchilik Kengashi) to'g'risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar Jamoatchilik Kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik

manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha davlat organi va uning mansabdon shaxslarining faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organi faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organining rasmiy veb-saytida Jamoatchilik Kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash;

davlat organi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rghanish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organi faoliyati bo'yicha fuqarolar o'ttasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati (M.Mirzayev) Jamoatchilik Kengashining faoliyatiga oid ma'lumotlarni belgilangan tartibda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida yoritib borilishini ta'minasin.

6. Viloyat hokimining 2018-yil 13-sentabrdagi "Viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 612-Q-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinnbosari B.Qodirov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



E.Turdimov

Samarqand viloyat hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
301-7-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashining
TARKIBI**

1.	Toshev Farmon Is'hoqovich	“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari tahriri yati bosh muharriri, Kengash raisi
2.	Negmatov Shuhrat Xudoyberdiyevich	“Nuroniy” jamg‘armasi Samarqand viloyati bo‘limi raisi, Kengash raisining o‘rinbosari
3.	Yuldashev Sherali Mamaramovich	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Samarqand viloyati boshqarmasi boshlig‘i, Kengash kotibi
A’zolari:		
4.	Xalmuradov Rustam Ibragimovich	Samarqand davlat universiteti rektori
5.	Ismailov Dilshod Bahriiddinovich	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Samarqand viloyati bo‘limi rahbari,
6.	Rafikov Suxrob Abdugaffarovich	Kasaba uyushmalar tashkilotlari birlashmasi Samarqand viloyati Kengashi raisi
7.	Xaitov Orif Bolikulovich	Samarqand viloyati Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
8.	Raxmanov Baxodir Ubaydulloyevich	Viloyat hokimligining “Овози Самарқанд” gazetasi bosh muharriri
9.	Ixtiyorov Mirzo Rustamovich	Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi direktori
10.	Xamrayyev Elyor Maxmatqulovich	“Yuksalish” umummilliy harakatining Samarqand viloyatidagi hududiy bo‘linmasi rahbari
11.	Kenjayev Shoim O’ralovich	O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Samarqand viloyati bo‘limi rahbari
12.	Aripova Munira Shermatovna	O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati Samarqand viloyati tashkiloti raisi
13.	Ulug‘murodov Elyor	Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Samarqand viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari
14.	Mansurov Yoqubjon Qobilovich	O‘zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakili v.v.b.

15.	Xankeldiyeva Feruza Musayevna	“Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi Samarqand viloyati bo‘limi raisi
16.	Bobomurodov Saloxiddin	Mehnat faxriysi
17.	Xudoinazarov Tuxta	Mehnat faxriysi
18.	Bobomurodova Xosiyat	Shoira, mehnat faxriysi
19.	Saloriy Dilorom	Filologiya fanlari doktori, professor

Samarqand viloyat hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
301-7-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom deb yuritiladi) viloyat hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashining (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik Kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik Kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik Kengashi viloyat hokimligi (keyingi o‘rinlarda - hokimlik deb yuritiladi) huzurida tashkil etiladi va uning faoliyatiga tatbiq etiladi.

4. Jamoatchilik Kengashi viloyat hokimining qarori bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik Kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik Kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

7. Jamoatchilik Kengashi to‘g‘risidagi nizom va unga kiritiladigan o‘zgartishlar hamda qo‘sishchalar viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlanadi.

2-bob. Jamoatchilik Kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatları

8. Quyidagilar Jamoatchilik Kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari talablari ijrosini ta’minlash, viloyat hokimligining zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihamlar va dasturlarni ro‘yogga

chiqarish bo‘yicha viloyat hokimligi va uning mansabdon shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

hokimlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun viloyat hokimligini fuqarolar bilan bog‘lab turadigan “ko‘prik” rolini bajarish;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan hokimlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, jumladan, ularni axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

hokimlik faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

hokimlik faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

hokimlikning rasmiy veb-saytida Jamoatchilik Kengashi faoliyati bilan bog‘liq ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilab borilishini ta’minlash;

hokimlik faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

hokimlikning faoliyati bo‘yicha fuqarolar o‘rtasida o‘tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

hokimlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo‘shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo‘yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo‘yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

9. Jamoatchilik Kengashi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

hokimlikning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha viloyat hokimligiga tegishli takliflar kiritadi;

hokimlikning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

hokimlik faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagи mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni hokimlikning xodimlari o‘rtasida muhokama qilishga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va hokimlik faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

davlat boshqaruv organlarida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarini ko‘rib chiqadi;

hokimlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdan bo‘shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko‘maklashadi;

xodimlar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo‘yicha hokimlik xodimlari o‘rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

hokimlikda sog‘lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta’minalash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo‘lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma’naviy-ma’rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma’rifiy va o‘quv adabiyotlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni hokimlik faoliyatini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta’minalaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif ishlab chiqadi;

hokimlik faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

hokimlik faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha

bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik Kengashining zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

hokimlik tomonidan tashkil etiladigan bo‘lajak ochiq hay’at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

hokimliklar va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga Jamoatchilik Kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

hokimlik faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot, statistika va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish;

hokimlikning qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta’minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga hokimlik tomonidan berilgan javoblarining sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

viloyat hokimligi xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy- maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

Jamoatchilik Kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik Kengashi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Jamoatchilik Kengashi o‘z faoliyatini amalga oshirishda:

jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishi;

hokimlik faoliyati bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklov larga amal qilishi;

hokimlik va uning mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

hokimlik va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘sqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingen axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo‘lsa, maxfiyligiga riosa qilishi shart.

Jamoatchilik Kengashining zimmasida qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

3-bob. Jamoatchilik Kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

12. Jamoatchilik Kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolari kiradi.

13. Jamoatchilik Kengashi a’zoligiga, qoida tariqasida, davlat organida namunali xizmat ko‘rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e’tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik Kengashi a’zolarining soni cheklanmagan.

14. Jamoatchilik Kengashining tarkibi viloyat hokimining qarori bilan har 3 yilda tasdiqlanadi.

15. Quyidagi holatlarda Jamoatchilik Kengashining raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan Jamoatchilik Kengashi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

Jamoatchilik Kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori assosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

16. Jamoatchilik Kengashining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar shuningdek, ularning aloqa ma’lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) va unga kiritilgan o‘zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida hokimlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

17. Jamoatchilik Kengashining raisi:

jamoatchilik Kengashining faoliyatiga umumiyo rahbarlik qiladi;

jamoatchilik Kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

jamoatchilik Kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik Kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

jamoatchilik Kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

jamoatchilik Kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan Jamoatchilik Kengashining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarkibi bo‘yicha takliflar kiritadi va viloyat hokimi (o‘rbosarlari) bilan kelishadi;

jamoatchilik Kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan viloyat hokimi (o‘rbosarlari) bilan hamkorlik qiladi;

jamoatchilik Kengashining samarali ishini ta’minalash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik Kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o‘rbosari bajaradi.

19. Jamoatchilik Kengashi raisining o‘rbosari:

rais yo‘qligida Jamoatchilik Kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik Kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

jismoniy va yuridik shaxslar va ularning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, Jamoatchilik Kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

Jamoatchilik Kengashining samarali ishlarini ta’minalash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik Kengashining kotibi:

Jamoatchilik Kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta’minalash masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik Kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minalaydi, viloyat hokimligi xodimlaridan zarur hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Jamoatchilik Kengashi majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi;

jamoatchilik Kengashi o‘tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini Jamoatchilik Kengashining raisi bilan kelishadi;

jamoatchilik Kengashining a’zolarini va taklif etilgan shaxslarni Jamoatchilik Kengashi majlisi o‘tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

jamoatchilik Kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini Jamoatchilik Kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

jamoatchilik Kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning Jamoatchilik Kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natalishini ta'minlaydi;

jamoatchilik Kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik Kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarни muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik Kengashining majlisida ishtirok etish imkonini bo'lмаган holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik Kengashining a'zolari:

o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun hokimlik tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirdorda ishtirok etadi;

Jamoatchilik Kengashi ish rejalarining loyihamalarini tayyorlaydi, ularni Jamoatchilik Kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalarini bajarilishini ta'minlaydi;

hokimlik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

hokimlik xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni Jamoatchilik Kengashiga kiritadi;

jamoatchilik Kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

jamoatchilik Kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

jamoatchilik Kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik Kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi.

Jamoatchilik Kengashining majlisi uning ish rejalarini asosida har chorakda kamida bir marotaba chaqiriladi.

Jamoatchilik Kengashining raisi Jamoatchilik Kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

Jamoatchilik Kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar hokimlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart.

23. Jamoatchilik Kengashining majlislariga hududiy davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

24. Jamoatchilik Kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan Jamoatchilik Kengashi a'zolarining takliflari va Jamoatchilik Kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

25. Jamoatchilik Kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinnbosari olib boradi.

Jamoatchilik Kengashining majlisida viloyat hokimi, uning o'rinnbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Jamoatchilik Kengashining majlisi, agar unda Jamoatchilik Kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, Jamoatchilik Kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

27. Jamoatchilik Kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan Jamoatchilik Kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Jamoatchilik Kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri Jamoatchilik Kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

29. Jamoatchilik Kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik Kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda viloyat hokimligiga, Jamoatchilik Kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

30. Jamoatchilik Kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror Jamoatchilik Kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Hokimlik Jamoatchilik Kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, Jamoatchilik Kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

31. Jamoatchilik Kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida Jamoatchilik Kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, Jamoatchilik Kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Jamoatchilik Kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash viloyat hokimligi tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik Kengashining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq ekanligi viloyat hokimi tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik Kengashining va viloyat hokimining Jamoatchilik Kengashi faoliyati bilan bog'liq hujjatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.